

## QUYONLARNING YUQUMSIZ KASALLIKLARI VA DAVOLASH USULLARI

**Erkinova Latofat Umidjon qizi**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** *Bugungi kunda aholining sifatli oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa maishiy ehtiyojlarini ta'minlash ularning turmush farovonligining asosiy negizlaridan biri hisoblanadi. Bu borada asosiy ko'zga tashlanib turgan jabhalardan biri bu quyunchilikdir. Yurtimizda ham quyunchilik yaxshi rivojlangan bo'lib qishlok xo'jaligining muhim bir tarmog'iga aylanib ulgurgan. Quyonlarda uchraydigan yuqumli va yuqumsiz kasalliklar quyonlar mahsuldorligining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Quyonlardan sifatli mahsulot olishda ularda uchraydigan yuqumli va yuqumsiz kasalliklariga e'tibor berish, ularga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalari qatoriga kiradi.*

**Kalit so'zlar:** *Metiorizm, kon'yunktivit, pododermatit, rinit, bronxit, plevrit.*

Quyonlarni sovuq urishi. Quyonlar ochiq havoda o'ta sovuq haroratda saqlanganda ularni sovuq urishi mumkin. Klinik belgilari. Quyonning quloqlari va oyoqlarining uchi zararlanadi, sovuq urgan joy qizaradi, pufak hosil bo'ladi yoki o'sha yerdagi to'qima o'ladi. Kasallikni davolash usullari. Agar quyonning qulog'i biroz qizargan bo'lsa, uni qor bilan ishqab, issiqroq xonaga olib kiriladi. Keyin quyon yog'i yoki 1 foizli yod malhami surkaladi. Sovuq urgan joyda pufak paydo bo'lgan bo'lsa, uni ochib, suvi chiqariladi va penitsilinli malham qo'yiladi. Agar to'qima o'lgan bo'lsa, olib tashlab, yaraga streptomitsin malhami qo'yiladi. Quyonlarni quyosh urishi. Yuqori haroratda yoki quyosh nuri tik tushganda, quyonxona dim bo'lib ketganda quyosh nuri urishi holati vujudga keladi. Bu hol O'zbekiston sharoitida ko'p uchrab turadi. Klinik belgilari. Quyonlar kam harakat bo'lib, ozuqaga qaramaydi, nafas olishi tezlashadi, ko'z atrofi, og'iz va burni, orqa chiqaruv teshigi qizarib, ayrim joylari ko'karib ketadi. Keyinchalik titroq paydo bo'lib, halok bo'ladi. Davolash usullari. Bunday holat sodir bo'lganida quyon sovuqroq xonaga ko'chiriladi. Quyonni boshiga ho'llangan latta bosib, har 4-5 minutda yangilab turiladi. Xatto, quyonning usti biror material bilan yopilib, suv quyish mumkin. Quyosh urgani qancha tez aniqlanib davolansa, shuncha tez tuzaladi. Kasallikning oldini olish uchun quyon kataklari bostirmalar tagiga, daraxtlarning soyasiga joylashtiriladi. Bunda kataklarga ertalab yoki kechqurun quyosh nuri tushib turishi kerak.

Tug'ishning kechikishi. Odatda quyonlar 28-30 kunda tug'adi. Ayrim hollarda tug'ish 34-36 kunga cho'zilishi mumkin. Undan ham cho'zilib ketsa, homilada biror o'zgarish yuz bergan deb qarash kerak. Klinik belgilari. Homilani qo'l bilan ushlab ko'rilganda qimirlamas, qorinning kattalashib ketgani kuzatiladi. Davolash usullari. Quyonning yelka terisi ostiga 1 ml pitiutrin yoki oksitotsin moddasi ukol qilinadi. Bu dori quyon bachadonini

harakatga keltirib, sun'iy tug'ishni vujud ga keltiradi. Ba'zi hollarda tug'ishning kechikishiga, quyonlarni bo'g'ozlik davrida xaddan tashqari ko'p boqilishi ham sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun quyon tug'ishga yaqin unga to'la qimmatli ozuqalar oz-ozdan tez-tez berib turiladi.

Metiorizm (ichak shishishi). Bu kasallik ko'pincha quyonlarga yangi o'rilgan va ho'l xashaklarni ko'p berish oqibatida kelib chiqadi. Bunga yaxshi yetilmagan beda, sebarga, xo'l o'tlar, mog'orlagan xashak, qizib qolgan ko'k ozuqalar va achigan ozuqalar sabab bo'ladi. Kasallik alomatlari: Quyon ozuqani yemay qo'yadi, qorni kattalashadi, nafas olishi tezlashadi, ammo yuzaki bo'lib, xuddi bo'g'ilib qolganga o'xshaydi. Kasallikni davolash usullari. Shunday holat sodir bo'lganda birinchi navbatda sifatsiz ozuqa ratsiondan chiqarilishi kerak. Kasal quyonga esa 5-8 ml ixtiol eritmasidan yoki 3-5 ml sut kislotasi bilan muskul orasiga ukol qilinadi. Quyoning qorni yengil silanadi, vaqti-vaqti bilan katakdan chiqarib harakatlantiriladi.

Kon'yunktivit – ko'z kasalligi. Ko'zning mexanik jarohatlanishi, unga chang yoki boshqa yot jism singishi, kimyoviy moddalar ta'siri va quyon yemida A vitamini yetishmasligi oqibatida vujudga keladi. Klinik belgilari. Kon'yunktivit shakllari ko'zdagi shilliq pardalar yiringlashi yoki yallig'lanishi ko'rinishida kuzatiladi. Birinchi shaklda ko'zlar kuchli qizarib, ko'p miqdorda ajralayotgan yiring qovoqlarni ochirmay yopishtirib qo'yadi. Ikkinchi shaklda quyon ko'zidagi shilliq pardalarning qizarishi, shishishi va yoshlanishi ko'zga tashlanadi. Davolash usullari. Ko'zdagi shilliq pardalar yallig'lanishi ko'rinishidagi kon'yunktivitni davolash uchun quyon ko'zi 2% li borat kislotasi bilan yuvilib, unga 2-3 tomchi rux eritmasi tomchilari tomiziladi. Kon'yunktivitning yiringli ko'rinishidagi shaklini davolash uchun esa quyon ko'zi 2% li borat kislotasi bilan yuviladi. Qovoqning shilliq pardalariga (qovoqlar ostiga) 2-3% li eritromitsin surtiladi. Shoxparda (muguzparda) yaralangan va xiralashganda kalomel, eritromitsin surtiladi.

Nafas olish a'zolari kasalliklari. Quyonxonadagi havo haroratining keskin o'zgarib turishi, yelvizak, ammiak moddasi, chang, tutun va momiqning oshib ketishi oqibatida vujudga keladi. Ushbu kasalliklar jumlasiga rinit (tumov), bronxit, plevrit (zotiljam) va o'pkaning kataral (pardalarning) yallig'lanishi kiradi. Davolash usullari. Birinchidan kasallikning vujudga kelish sabablarini bartaraf etish. Ikkinchidan rinitga chalingan quyon burniga bir kunda 1-2 marotaba 1% li furatsilin eritmasini, tarkibida 15-20 ming birlikka ega penitsillin eritmasi bilan aralashtirib 5-6 tomchi tomiziladi; bronxitga chalingan va o'pkasi kataral (pardalari) yallig'langan quyoning mushaklari orasiga har 4 soatda quyoning har 1 kg vazniga 20 ming birlikka ega penitsillin eritmasi yuboriladi. Shuningdek, yem bilan birgalikda quyoning har 1 kg tirik vazniga eritromitsin, tilozin beriladi. Kasallikning oldini olish usullari. Quyonlar katagini o'z vaqtida sovuq o'tmay-digan qilib isitish, yelvizakka barham berish, yemini yaxshilash.

Pododermatit. Panjalar yostiqchasida yara va teshiklar paydo bo'lishi bilan kuzatiladigan katta quyonlar orasida ko'p uchraydigan kasallik. Ushbu kasallikka tirik vazni og'ir va panjalaridagi momiqlari yomon rivojlangan quyonlar ko'p ta'sirchandır. Quyonxona

va kataklardagi antisanitariya holati, ortiqcha namlik va havo haroratining haddan tashqari yuqori bo'lishi kasallik rivojlanishiga sabab bo'ladi. Kasallikning ilk bosqichida jadal sho'ralash oqibatida oyoq tagining yorilishi, g'urra va o'simtalar paydo bo'lishi, panjalardan tez-tez qonli sariqsuv chiqishi yoki kuchsiz qon ketishi kuzatiladi. Keyinchalik yiringli yara va teshiklar hosil bo'ladi. Jonivorlar ishtahasi yo'qoladi, goh u goh bu oyog'ida turishadi, oyoqlarini cho'zib ko'p yotadi, ozadi, aksariyat hollarda nobud bo'ladi. Davolash usullari. Har kuni jarohlarga levamikol surtiladi. Yaralardagi qurigan teri va o'lik to'qimalar mexanik usulda olinadi, 1-2% li yod bilan ishlov beriladi. Qon oqishi to'xtatilgach, jarohatga oksitetrasiklin (oksitetrasiklin digidrat), tetrasiklin kukuni (poroshogi) sepiladi yoki Vishnevskiy (maz) surtmasi surtiladi. Dorilar qo'yilgan joylarni mahkamlovchi bog'lama bilan bog'lagan ma'qul. Agar kasalga chalingan quyon qiymati yuqori bo'lmasa uni so'yish, terisini shilib olib, go'shtini ko'mib tashlash maqsadga muvofiqdir. Kasallikning oldini olish choralari:

1. Kasalga chalingan yoki ushbu kasallik bilan kasallanishga moyil bo'lgan (panjalardagi momiqlari yomon rivojlangan) quyonlarni yaroqsiz quyonlar guruhiga ajratib qo'yish;

2. Kataklarni toza tutish;

3. Katakdagi to'rdan qilingan polga 35x25 santimetr li yog'och pol yotqizish;

4. Kataklarni yangi so'ndirilgan ohak bilan oqlash.

Xulosa qilib aytganda quyonlarni kasalliklardan asrash uchun ularni yaxshi sharoitda boqish va ko'paytirish kerak. Ulardan sifatli mahsulot olishda ularning kasalliklarini erta aniqlash va unga davo choralari ko'rish darkor. Bu esa qishloq xo'jaligi tarmog'iga katta foyda keltiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. . A.X. Xolmatov "QUYONCHILIK". "Agrobank" ATB – 2021. Nashriyot uyi "Tasvir" – 2021.

2. . Adilova A., Xolmatov A. "Fermer xo'jaligida quyonchilik" O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. № 11. 2010.

3. Amanturdiyev G'.B. "Quyonchilik" fanidan amaliy mashg'ulot. Toshkent: 2000.

4. Dolimov Sh.Z Tomorqa xo'jaligida quyonchilik. Toshkent: 2008.

5. Ballasov U.Sh., Mamatiminov Sh.K. "Quyonchilik" fanidan o'quv qo'llanma. ToshDAU. Toshkent: 2016.